

**TEXNOLOGIK TA'LIMDA TALABALARNING KREATIV FAOLIYATINI
ELEKTRON TA'LIM ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Abdullayeva Mushtariy Obidjon qizi

O'qituvchi

Oliy ta'lim muassasalari Texnologik ta'lim yo'nalishi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarini takomillashtirish maqsadida elektron ta'limdan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish oliy ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil sanaladi.

Elektron ta'lim barcha turdagi ta'lim usullari va vositalarini o'z ichiga oladi, bu yerda bilim va ko'nikmalarni yangi elektron texnologiyalar, shu jumladan kompyuterlar va internet taqdim etadi. Elektron o'qitish jarayonlariga vebga asoslangan ta'lim, kompyuterga asoslangan holda o'qitish, virtual muhit va multimedia tarkibini o'rganish, matn, animatsiya, video va audio oqimlari kiradi.

Texnologik ta'lim yo'nalishida ham o'quv jarayonlarini elektron shaklida namoyish etish, talabalar bilim, ko'nikmalarini shakllantiribgina qolmay, balki ularni mustaqil ijodiy yondashishga, kreativ g'oyalarni ilgari surishga undaydi.

Elektron axborot- ta'lim resurusida aks ettirilgan ma'lumotlarning tarkibi va joylashuvi uning turi va dizayniga bog'liq. Turli joylarda joylashtirilgan bir hil ma'lumotlar orasidagi ma'noviy va shakliy tafovut bo'lishi mumkin emas.

Elektron axborot-ta'lim resursi bilan ishlashda talabalarda psixologik qulaylikni ta'minlash (o'rganuvchilarning yosh va individual xususiyatlari, fikrlashning turli xillari va shu kabilarni etiborga olish); elektron axborot-ta'lim resursi bilan ishlashda qulaylikni ta'minlash, talabani toliqtirmasligi lozim; (navigatsiyaning qulayligi va aniqligi, ma'lumotni idrok etish osonligi, zarur bo'lmagan, tushunish qiyin qisqartmalar va turli ortiqcha kodlardan foydalanmaslik; qo'llaniladigan shriftlar, ranglar, ekranda ma'lumotlarni ayrim qismlarini ajratib ko'rsatish usullari zerikishni keltirib chiqarmasli zarur); — ekrandagi ma'lumotni idrok qilishning psixologik jihatlari(foydalanilgan ranglar va ovoz, ekranda sodir bo'layotgan o'zgarishlar)ni hisobga olish. Umumkasbiy, Ixtisoslik fanlarida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslarida dars mazmunini to'ldiruvchi qo'shimcha audio ko'rinishdagi didaktik ko'rgazmali materiallar, texnologik operatsiyalar va ularning ishlash jarayonlarini turli animatsiyalar yordamida kuzatish, talabalarning tafakkurini o'stiradi, ular tasavvurida yangi g'oyalar paydo bo'ladi.

Elektron axborot ta’lim resurslarini tuzishda kerak bo’ladigan ayrim tavsiyalar.

№	Dars turi	Qabul qilish uslubi	Obraz	Qabul qilish darajasi
1	Ma’ruza	Eshtish		5%
2	O’qish	Ko’rish		10%
3	Video dars	Eshtish, ko’rish		20%
4	Tajribani namoyish qilish	Eshtish, ko’rish, amaliy tatbiqiy ko’rish		30%
5	Bahs munozara	Muhokama tahlil		40%
6	Mustaqil ish	Ko’rish, muhokama tahlil, mashq bajarish		50%
7	Ishbob o’yin, guruhlarda ishlash, tahlil, mustaqil ishlash	muhokama tahlil, mashq bajarish, qiyoslash		75%
8	Yo’naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, mustaqil ishlash, tahlil	Eshtish, ko’rish, muhokama tahlil, mashq bajarish, qiyoslash		90%

Mashg’ulotlar jarayonida talabalar bilimini mustahkamlab borish uchun dastur asosida elektron nostandart test va so’rovnomalar ko’rgazmali tashkil qilinadi. Testlar darslikda berilgan mavzular kesimida test WEB formatda yaratiladi. Tashqi ko’rinishdan bu elektron nazorat dasturining eng sodda ko’rinishi va birlamchi varianti.

Bundan tashqari o’rganilgan kurs materialini o’zlashtirish darajasini tahlil etish uchun savollar ombori bilan ishlash, to’g’ri-noto’g’ri javoblar tahlilini qila oladigan, ya’ni mavzuni o’zlashtirishdagi muammolarni aniqlash imkoniyati realizasiya qilingan test dasturi ham resurs bazasiga kiritiladi.

Dars mavzusini to’ldiruvchi qo’shimcha materiallar. Mazkur blok (menyu)da darslik mazmunini to’ldiruvchi interaktiv animatsion dasturlar, rasmlar kompozitsiyasi, matn ko’rinishdagi qo’shimcha materillar joylashtiriladi.

Didaktik materiallar, fan bo'yicha taklif etilayotgan resurs mazmunini namoyish etuvchi plakatlar, ko'rgazma qurollari va fanni o'rganish uchun yaratilgan chiziqli animatsion roliklar o'rnatiladi [2].

Ushbu yo'nalishda ko'proq amaliy jarayonlar o'tkazilishi bois, bunday elektron ko'rinishdagi texnik chizmalar talabalarning bajarayotgan ishini osonlashtiradi va ularga qulayliklar yaratadi. Elektron ta'lim dunyoda turli xil modellar shaklida amal qiladi, uning asosiy tarkibiy qismlari virtual o'quv materiallari va aloqa hisoblanadi. U interfaol multimedia yechimlariga asoslangan bo'lib, talabaniing e'tiborini jalb qiladi va uning o'quv natijalarini tushunish va izohlash qobiliyatini rag'batlantiradi. Multimediya yechimlari quyidagi turlarda bo'lishi mumkin: audio (suhbatdosh, simulyator); tasvir (grafika, chizma, eskiz, model); video (videofayl, videokonferentsiyalar); rasmlar, musiqa, tovushlar yoki videolarni tahlil qilish va talqin qilish va matn tarkibini yanada takomillashtirish uchun boshqa hujjatlar bilan maslahatlashishga imkon beradigan havolalardagi matn [2].

Elektron ta'limning afzallik jihatlari shundan iboratki:

- Talabalarni atrofdagi dunyoning axborot oqimlarini boshqarish, axborot bilan ishlashning amaliy usullarini o'zlashtirish, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda ma'lumot almashish imkonini beradigan ko'nikmalarni rivojlantirish;

- tushuntirish va tasviriyl o'rganish usulidan faolga o'tish, bunda talaba o'quv faoliyatining faol sub'yektiga aylanadi. Bu talabalar tomonidan bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga hissa qo'shadi;

- talabalarning bilim faolligini kuchaytirish;
- darslarni yuqori estetik darajada o'tkazish (musiqa, animatsiya);
- talabalar takakkurini yangi g'oyalar bilan to'ldirish.

Elektron ta'limning kamchiliklari

- o'quv tizimlarining ishlashi bilan bog'liq texnik muammolar (aloqa tarmog'ining uzilishi, kompyuterlar, terminallar yoki serverlarning ishdan chiqishi, elektron kurs hujjatlarining viruslar yoki xakerlar tomonidan hujum qilinishi va boshqalar).

Xulosa shuki elektron o'qitish bo'lajak mutaxassislariga yondashuvni isloh qilishga imkon beradi, bunda interfaollik muhim ro'l o'ynaydi, ishlatiladigan vositalarni diversifikatsiya qiladi, o'z o'qishini ko'proq nazorat qilishga, o'quv jarayoniga yaxshiroq moslashishga yordam beradi. Bundan tashqari, globallashtirish jarayonida talabalarga ilg'or o'quv kurslarini tanlashga va turli mamlakatlarda talabalar guruhlarini yaratishga imkon beradi. Yangi axborot texnologiyalarining maqbul narxlari ularni barcha o'quv yurtlariga, shu jumladan oiliy ta'lim muassasalariga, guruhlardan o'qishni kengaytirishda, ba'zan esa masofaviy o'qitish dasturlarini taqdim etishda foydalanishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aripov M., Tillayev A. Web sahifalar yaratish texnologiyalari. T. 2024 y. 170 b.
2. Можаяева Г.В. Как подготовить мультимедиа курс? [Текст]: методическое пособие для преподавателей / Можаяева Г.В., Тубалова И.В.; Под ред. В.П. Демкина. – Томск: ТГУ, 2022. – 41 с.
3. Zaparov Abdukakhor. Teaching technology in general secondary schools on the “stem” educational approach. "Экономика и социум" №1(80) 2021.
4. Zaparov A A., Zafarov A A. . Use of video lesson creative technologies in the process of electronic education. ADPI Ilmiy xabarnomasi. 2025, № 4. 148-152 b.

